Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

Каждый из блоков учебного материала определенного уровня сложности включает соответствующее количество учебных модулей, последовательно изучаемых. Контроль результатов учебной деятельности осуществляется в следующем режиме: текущий контроль - на протяжении изучения учебного модуля; промежуточный контроль - по окончании изучения модуля; итоговый контроль - один раз в семестре по окончании изучения учебных модулей семестра. Самостоятельная работа студентов организуется в соответствии с содержанием учебных модулей и предусматривает: домашнюю работу студента с использованием материалов рабочей тетради учебно-методического комплекта, самостоятельное выполнение студентами заданий повышенного уровня сложности, представленных в соответствующем блоке модульной программы.

Технология модульного обучения - это не просто педагогическая технология, применяемая при обучении студентов иностранному языку, а необходимое условие овладения иноязычной культурой посредством создания благоприятных условий для развития будущих экономистов как культурно-языковых личностей, владеющих высокоразвитыми коммуникативно-культурными умениями при решении коммуникативных задач.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Фурманова В.П. Межкультурная коммуникация и культурно-языковая прагматика в теории и практике преподавания иностранного языка: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. М., 2014. 86 с.
2. Юцявичене П.А. Теория и практика модульного обучения. Каунас: Швиеса, 2013. 227
3. Чошанов М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения: метод. пособие. М.: Народное образование, 2002. 160 с.
4. Герасимов В.М. Модульное обучение общетехническим дисциплинам в вузе. Чита: Читинский политехнический институт, 1999. С. 17-20

INVESTITSIYANING MAZMUN-MOHIYATI VA AHAMIYATI

Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna
Andijon davlat texnika instituti tayanch doktoranti,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi
nomonjonovanargiza7@gmail.com

Published: 24.05.2025
Cite this article: Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna (2025). Investitsiyaning mazmun-mohiyati va ahamiyati. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/301
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada mamlakatimizda kichik biznesni rivojlanishida investitsiyalar muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan. Investitsiya haqida xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning qarashlari, tarif va tasiflari keltirilgan. Shu bilan birga muallifning kichik biznesni rivojlanishida investitsiyalarning muhim omil sifatidagi yondoshuvlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, innvestitsiya, investitsiya manbalari, investitsion resurslar, investitsiya muhiti.

Аннотация. В данной научной статье инвестиции рассматриваются как важный фактор развития малого бизнеса в нашей стране. Приводятся мнения, тарифы и классификации зарубежных и отечественных экономистов об инвестициях. При этом описывается подход автора как важного фактора развития малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, инвестиция, источники инвестиций, инвестиционные ресурсы, инвестиционная среда.

Abstract. In this scientific article, investments are considered as an important factor in the development of small business in our country. Foreign and domestic economists' opinions, tariffs and classifications about investment are presented. At the same time, the approach of the author as an important factor in the development of small business is described.

Key words: small business, investment, investment sources, investment resources, investment environment

Bugungi kunda mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish hamda barqaror o‘sishni ta’minlashdagi eng asosiy omillardan biri bu investitsiyalardir.

So‘nggi yillarda, kichik biznes sohasida investitsiya faoliyatini kengaytirish, investitsiya resurslari manbasini diversifikatsiyalash, muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu kabi vazifalarning samarali amalga oshirilishi, kichik biznes korxonalarini moliyalashtirish, jumladan, investitsion kreditlash hamda investitsiya dasturlari samaradorligini oshirish bilan bog‘liq. Bu esa, kichik biznes subyektlarining investitsion muhitini yanada takomillashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlab o‘tganidek, “Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz”[1]. Shu nuqtayi nazardan, kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi, ishlab chiqarish sektorlarini innovatsion texnika va texnologiyalar orqali kengaytirishni, sohaga investitsiyalar keng joriy etishni va shu bilan birga iste’mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to‘ldirishni taqazo etadi.

Shu o‘rinda, biz avvolo “investitsiya” atmasining mazmun-mohiyatiga alohida to‘xtalib o‘tsak. Shu kunga qadar iqtisodiy adabiyotlarda hamda iqtisodchi olimlar tomonidan “investitsiya” atamasiga yagona ta’rif keltirilmagan. Tadqiqotchilar tomonidan “investitsiya” tushunchasi turlicha talqin qilinib, ta’rif va tavsiflangan.

Jumladan, K.R. Makkonnel va C.JI. Bryularning fikricha, “investitsiyalar moddiy zahiralarning ko‘payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg‘arilishi va ishlab chiqarish harajatlaridir”[3]. Fikrimizcha, tadqiqotchilarning ushbu ta’riflari investitsiya tushunchasini to‘la qonli ifodalamasada, kapital qo‘yilmalar tushunchasiga ma’no jihatdan yaqindir.

F.S.Tumusov, “investitsiya pul mablag‘lari sarfi, daromad qismi sifatida, joriy iste’molda emas, balki takror ishlab chiqarishdagi barcha ijtimoiy va individual kapitaldan foydalanishni va natijada pirovard maqsad bo‘lib yangi, bir muncha yuqori daromad olish yoki kelajakda ijtimoiy samaraga erishishni ifodalaydi” deb, ta’rif bergan[4].

A.M.Lapteva fikriga ko‘ra, investitsiyalar huquqiy tushuncha sifatida foyda olish va (yoki) boshqa foydali samaraga erishish uchun tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga qo‘yiladigan foyda yoki imtiyozlar majmuini ifodalaydi[5].

Fikrimizcha, yuqorida tadqiqotchilarning investitsiyaga bergan ta’riflarida, iqtisodiyotga bugun kiritilayotgan investitsiyani kelgusida daromad keltirishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi aytilmoqda.

Shu o‘rinda, ko‘plab milliy iqtisodiyot vakillari ham tadqiqot ishlarida investitsiyalarga ta’rif bergan holda o‘z fikr-mulohazarini bildirib o‘tishgan.

Jumladan, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo‘yicha bayon etilgan ta’rifda: «investitsiyalar - foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo‘yiladigan pul mablag‘lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar» deb, ta’kidlangan [6].

Shu bilan birga, investitsion faoliyat nazariyasi hamda amaliyotida investitsiyani tasniflash muhim o‘rin tutadi va bu borada turli qarashlar mavjuddir. Jumladan, A.S.Bulatov, V.N.Jimirov, Ya.S. Melkumovlarning fikricha, investitsiyalarni maqsad belgilari bo‘yicha uch asosiy guruhga bo‘lish mumkin: moliyaviy investitsiyalar, real investitsiyalar, intellektual investitsiyalar[7].

Yuqoridagi tadqiqotchi olimlarning ta’rif va tavsiflarini, fikr-mulohazalarini o‘rgangan holda, biz investitsiyalarga quyidagicha mualliflik ta’rifini berdik:

investitsiya bu tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlarida faoliyatni yo‘lga qo‘yish hamda takror ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida moliyaviy (pul), real kapital yoki intelektual mulkka mablag‘ qo‘yish orqali kelajakda foyda olishdir.

Investitsiyalarning yuqoridagi tasnifidan kelib chiqqan holda, ularning o‘ziga hos vazifalari ham mavjud. Bu o‘z navbatida, mamlakatda investitsiya siyosatini samarali boshqarishni talab etadi. Iqtisodiyotning real sektor tarmoqlariga, jumladan, kichik biznesga investitsiyalar oqimini jalb qilish iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uning taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi, aholini ish bilan ta’minlovchi, ularning daromad manbaini shakllanishiga hissa qo‘shuvchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarni ishga solib iqtisodiyotga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozim.

Shu nuqta nazardan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlari - mulkning ko‘p shaklliligi, tadbirkorlikni rivojlanishi kabi jarayonlar mamlakatga chet el yuridik va jismoniy shaxslarning bemalol kirib kelishiga yo‘l ochmoqda hamda bir qancha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatilishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSH, Fransiya, Italiya, Turkiya, Xindiston, Angliya va shu kabi bir qancha davlatlar bilan iqtisodiyotning barcha sohalarida hamkorlik ishlari rivojlanmoqda. Ushbu mamlakatlarning taniqli tadbirkorlari O‘zbekistonga o‘z qiziqishlarini bildirishmoqda.

Xulosa qilib aytganimizda, hududlarimizda investitsion faoliyatga oid asosiy bilimlar va innovatsiyalarni, ishlab chikarish kuchlarining qulay joylashuvini, yuqori infratuzilma obyektlarini yaxshilashimiz aksariyat hollarda ushbu hududlarda investitsiyalar oqimini yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Bu degani, hududlarimizda investitsion muhit jozibadorligini oshirish demakdir. Darxaqiqqat, har bir investorning maqsadi investitsiya kiritish orqali daromad olishdir. U albatta o‘z sarmoyasini iqtisoiy jihatdan barqaror, tabiiy va ijtimoiy resurslarga boy, bilimlar va innovatsiyalarni yaratuvchi, moliyaviy, boshqaruv va logistik markazlarga, transport qatnovlari va yukori iste’mol tovarlari bozorlariga ega bo‘lgan hududlarga yo‘naltirishga xarakat qiladi. Shuning uchun, bugungi kunda mamlakatda har bir tadbirkorlik subyekti, o‘z faoliyatlarini barqaror ishlashini ta’minlashida investitsiyalarning o‘rni beqiyos ekanligidan kelib chiqib, undan foydalanish samaradorligini oshirishga ham alohida e’tibor qaratishi zarurdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018 yil.

2. B.T.Boyxonov “O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishini ekonometrik modellashtirish uslubiyotini takomillashtirish” Monografiya, T- Iqtisodiyot-2017, 8-bet.
3. I.Aliqulov, D.Sattarov “Investitsiyaning mazmun-mohiyati va tavsiflanishi” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 5, iyul, 2012 yil,2-bet.
4. А.М.Лаптева Содержание и сущность понятия «Инвестиции» Журнал Вестник Санкт-Петербургского университета. Право 2015, С-52.
5.S.X.Valiyeva “Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari” Jurnal Academic Research, Uzbekistan №6 2021, 297-bet.
6.Aliqulov, D.Sattarov “Investitsiyaning mazmun-mohiyati va tavsiflanishi” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 5, iyul, 2012 yil,5-bet.
7. M. E. Jo‘raxonov, Sh.S. Jumaboyev. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning dolzarb masalalari” - Educational Research in Universal Sciences, 2023 № 2. 135-138 бетлар. ISSN 2181-3515.

АНАЛИЗ ПРОЦЕССА СУШКИ ВИНОГРАДА

Юсупов М.Т.
Доцент Андижанского факультета
Ташкентского экономического университета

В Узбекистане особый приоритет был отдан реформированию сельского хозяйства. Это исходило из той роли, какую играет сельское хозяйство и отрасли, связанные с переработкой сельскохозяйственного сырья, в современной экономике Республики Узбекистан.

Критический анализ существующих методов сушки, свидетельствует, что рекомендуемые способы энергоемки, материалоемки и малоэффективны, т.е. в каком – то мере отрицательно отражается на продолжительности сушки, в связи с чем, они не очень распространены.

Известно, что сушка сельхозпродуктов в обычном понимании этого слова представляет собой удаление из них влаги или других растворителей, молекулы которых не утратили своей индивидуальности. В общем случае в